



Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur. Shavkat MIRZIYOYEV

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

Insoniyat o'z taraqqiyoti davomida hamisha ulug' zotlarning iltifatkuri, aql-zakovatidan bahramand bo'lib kelgan, ular qoldirgan buyuk meroslaridan iftixor qilgan o'zbek xalqining ham shunday iftixorga loyiq ulug' zotlari bo'lgan. Ana shunday ulug' zotlardan biri buyuk davlat arbobi va ma'rifatparvar inson Amir Temur ibn Tarag'ay Muhammad Bahodirdir.

AMIR TEMUR MADANIYAT VA ILM-FAN HOMIYSI

Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat mamlakat iqtisodiyotining yaxshilanishiga va taraqqiy etishi, shaharlarning mustahkamlanishiga, karvon yo'llarining tiklanishi, savdo-sotiqning kengayishi, hunarmandchilikning, qishloq xo'jaligining taraqqiy topishiga zamin hozirladi. Bularning barchasi madaniyat va ilm-fanning ravnaq topishiga imkon yaratdi.

Mamlakatda madaniyat va ilm-fanning gullab, keng miqyosda yuksalishi uchun siyosiy va iqtisodiy shart-sharoitning o'zigina yetarli emas edi. Bunga boy madaniy merosning mavjudligi, ma'naviy zamin ham talab qilinardi. Movarounnahr va Xuroson boy madaniy an'analari hamda qadriyatlar bilan shuhrat qozongan markaz bo'lib, Amir Temur davriga kelib yanada gullab yashnadi. Mamlakatda yaratilgan ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlar Eron, Arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy va Yevropaning ko'pgina davlatlari bilan madaniy aloqalarni rivoj topishida asosiy rol o'ynaydi.

Amir Temur shaharlarga e'tiborini qaratib, dastlab o'zi tug'ilib o'sgan yurti Shahrisabzda mahobatli Oqsaroy va ko'rkam masjidlar, poytaxt Samarqandda ulug'vor, hashamatli binolar, Turkistonda, Damashq va Tabrizda masjidu madrasalar barpo etishda bosh-qosh bo'ldi. Bu davrda Samarqand va Hirotdan tashqari Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Balx, Mashhad, Sherov kabi ko'plab madaniy markazlar mavjud bo'lib, bu markazlarga jahonning ko'plab ilm-fan egalari yig'ilgan edi.

Amir Temur saroyining rassomlari ulug'vor me'morlik yodgorliklarining, devorlarga solingan naqshlarning hamda qisman bizning kunlarimizgacha yetib kelgan miniatyura bezaklari bo'lgan yuzlab qo'lyozmalarning ijodkorlari – Jahongir Buxoriy va boshqalar bo'lgan. Bularning barchasi Amir Temurni temuriylar davri Renessansining asoschisi deyishga dalil bo'ladi.

Shuningdek, o'tmishda an'ana-viy teatr, qo'g'irchoqbozlik, raqs, xalq sirki, qo'shiqchilikning barcha shakllari, turlari "Tomosha" degan birgina istiloh bilan ifodalangan. Asli arabcha bu so'z "Qarash, ko'zdan kechirish" degan ma'nolarni anglatadi. Ammo Markaziy Osiyo mintaqasida uning ma'no doirasi juda keng bo'lib, ko'pchilikka mo'ljallangan hamda ko'ruvchi va tinglovchini quntiradigan yoki qayg'urtiradigan, ba'zan hatto jumbushga soladigan ijrolar, maydon ma'rakalari, marosimlar bilan bog'liq namoyishlar va o'yinlar – barchasi "Tomosha" deb yuritilgan. Turkiychada "O'yin" atamasi ham ishlatilgan. Biroq uning qo'llash doirasi haddan tashqari juda keng bo'lib, ermak mashg'ulotlar, badantarbiya va sportga aloqador sohalarini ham o'z ichiga olgan.

Amir Temur Movarounnahrda ilgaritdan mavjud an'analarni davom ettirgan holda, o'zining har bir g'alabasini bayram, to'y bilan nishonlagan. Har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan. Oilaviy marosimlarni ham sozanda, xonanda va raqqosu-raqqosalarsiz, umuman olganda o'yinchilarning katta-katta guruhlarini jalb etgan holda o'tkazishni yoqtirgan. Uning davrida xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin.

Xos bazmlarda maqom kuylari chalingan. Bu kuylarga raqqos va raqqosalar xirom etgan, masxara va muqallidlar kuldigan, bayramlarda katta maydon va ma'rakalarga yarasha tomoshalar ko'rsatilgan. Maydon tomoshalari orasida ot bilan bajariladigan poyga, uluq chopish (Ko'pkari), otdan ag'darish, chavgon, qaboq o'yin kabilari, haqqoniy kuch sinovi hisoblanmish kurash (Gushtirlik), qilich, nayza, gurzi va boshqa jangovar qurol va aslahalar bilan o'tadigan bellashuvlar, shuningdek, qo'chqor, xo'roz urishtirish kabi qadimiy o'yin va musobaqalar yetakchilik qilgan.



Sohibqiron Amir Temur tavalludining 682 yilligi

Amir Temurning tug'ilgan shahri Shahrisabz o'rta asrlarda «**Kubbatul ilm val adab**» degan muqaddas nomga sazovor bo'lganligi tarixdan yaxshi ma'lum. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Shahrisabzda o'z davrining mashhur islom namoyondalari yashagan bo'lib, ulardan biri Abu Muhammad Obdon Keshiy edi. XIV-XV asrlarda Abdulloh Samarqandiy, Abu Abdulloh Muhammad Buxoriy va Abul Husayn Muslim Nishopuriylar ham Shahrisabzda yashab islom tariqatini rivojlantirganlar.

Amir Temur olimlar bilan suhbat va bahslar uyushtirishni yaxshi ko'rgan, g'oliblarga qimmatbaho tuhfa bergan. Sohobqiron hayotlik paytidayoq uning saroyidagi olimlar ilmiy kashfiyotlar bilan shuhrat qozonganlar. Bular qatoriga nasta'liq xatining kashfiyotchisi Abdulqodir Marog'iniy (1334-1435), buyuk riyoziyotchi G'iyosiddin Jamshid, munajjim Sayyid Sharif Jurjoni (1339-1413), faylasuf va qomusiy olim Sa'diddin Taftazoniy (1322-1392), Xoja Muhammad Porso (1420 yilda vafot etgan) va boshqalarni kiritish mumkin.

Ilm ahlining vakillari, ayniqsa, tarixchilar, tibbiyot va nujum sohalari bilimdonlari (tarixchi Xofizi Abru, diplomatlar Shamsiddin Olmaliqiy va mavlono Abdulloh al Keshiy, munajjim Abdulloh Lison, tabib mavlono Fazlulloh Tabriziy va boshqalar) Sohobqironiga safarlarda hamrohlik qilganlar. Sa'diddin Taftazoniy va Sharif Jurjoni Amir Temur saltanatidagi qomusiy olimlar

edi. Amir Temur tarix fanini, ayniqsa, xalqlar, elatlar tarixini juda yaxshi bilgan, o'zi muntazam tashkil qilib turgan ilmiy majlislardagi munozaralarda faol qatnashgan. Xofizi Abru ta'kidlashicha, bunday ilmiy bahslarda Sohobqiron o'zini juda oddiy tutarkanki, davradagilar uning hukmdor ekanligini ham unutib ko'yarkanlar. Arab tarixchi olimi ibn Xaldun ham Damashq ostonasida Amir Temur bilan uchrashib suhbatlashganida, uning bilim doirasining kengligiga tahsin aytganligini manbalar orqali bilamiz.

Amir Temur saltanatida fanning turli sohalarini bilan bir qatorda, amaliy san'at, xattotlik san'ati, kitobot, adabiyot kabi sohalarini ham rivojlantirdi. U o'z saltanatidagi barcha xalq, elatlarning madaniyati, san'ati rivojiga ham e'tibor bergan. Amir Temur davriga kelib Movarounnahrda kitobot madaniyati yutuqlarining sintezlashuvi sodir bo'ladi. Ustalarining ilhom bilan ijod qilishiga shart-sharoit yaratildi, dunyoda eng yaxshi qog'oz ishlab chiqarildi. O'rta Osiyoda qo'lyozma kitoblarning ajoyib namunalari yaratildi.

Amir Temurning Buyuk ipak yo'lini har tomonlama rivojlantirish yuzasidan qilgan say-harakatlari Sharq va G'arb orasida erkin axborot almashuviga, kitob ishlab chiqarish va uning to'siqsiz olib o'tilishi orqali axborot makonining kengayishiga ta'sir ko'rsatdi. Bu ilm-fan rivoj topishiga, madaniyat yuksalishiga, insoniyat sivilizatsiyasini gullab yashashiga muhim zamin bo'ldi.

**Bo'ri QODIROV,
Ilmiy-tadqiqot bo'limi boshlig'i,
tarix fanlari nomzodi, dotsent**

17 апрель куни Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти анжуманлар залида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 31 майдаги ПҚ-3022 сонли “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги ва 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-3151 сонли “Олий маълумотли мутахассислар тайёрлаш сифатини оширишда иктисодиёт соҳалари ва тармоқларининг иштирокини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорлари ижросини таъминлаш мақсадида “Эстрада ва оммавий томошалар санъати” кафедраси томонидан “Эстрада санъатини ривожлантиришда малакали кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари” мавзусида Республика илмий-амалий семинари бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон маданият вазирлиги, “Ўзбекконцерт” давлат муассасаси, Тошкент маданият бошқармасига қарашли маданият уйлари раҳбар ходимлари, театрлар раҳбарлари, Республика эстрада цирк коллежи, Тошкент маданият коллежи, Бекобод санъат коллежи ўқитувчилари ва талабалари, институтимиз раҳбарияти ва кафедралари ҳамда “Эстрада ва оммавий томошалар санъати” кафедраси профессор-ўқитувчилари иштирок этдилар.

Семинарни кириш сўзи билан институт илмий ишлари бўйича проректори, санъатшунослик фанлари номзоди, доцент Г.Э.Халикулова очиб берди. Семинар доирасида “Эстрада ва оммавий томошалар санъати” кафедраси доценти Т.М.Рашидов “Эстрадное искусство - перспективы и факторы развития” мавзусида, Бекобод санъат коллежи ишлаб чиқариш таълими бўйича директор ўринбосари Д.А.Джураева “Эстрада санъатининг ривожланишида таълимдаги муаммолар” мавзусида, Тошкент маданият коллежи доценти А.Тўлаганов “Олий таълим тизимига тайёрлашда ўрта махсус касб-хунар коллежининг ўрни” мавзусида ва Республика эстрада цирк коллежи “Эстрада актёрлиги санъати” бўлими бошлиғи Ж.Р.Вильданов “Современная потребность учреждений сферы культуры и искусств - подготовка талантливых кадров” мавзуларида маъруза қилдилар. Семинарда эстрада санъатида

ЭСТРАДА САНЪАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА малакали кадрлар тайёрлашнинг долзарб муаммолари

кадрлар тайёрлаш бўйича таълимдаги муаммоларнинг ечими юзасидан соҳа мутахассислари томонидан кўплаб таклиф ва истаклар билдирилди. ОТМ ва коллежлар ўртасида инновацион ҳамкорликни янада кучайтириш, у ерда таълим олаётган иқтидорли талабалар билан ишлаш, педагог кадрлар етиштириб бериш бўйича муаммоларни ҳал этиш зарурлиги тўғрисида фикрлар билдирилди.

Очиқ мулоқот тарзида ўтказилган мазкур семинарда маърузаларда кўтарилган масалалар бўйича кўплаб қимматли маслаҳатлар билдирилиб, хусусан республикамиз маданият уйларида талабалар амалиёти даврида юзага келаётган камчиликлар, келажакда қилиниши лозим бўлган ишларни қайтадан кўриб чиқиш ва режалаштириш зарурлигини ошқор этди.

Кафедра доценти Темур Рашидов эстрада санъатининг ўзига хослиги, унинг жанрлари, актёрлик мактаби ривожланишининг замонавий тенденциялари, мазкур соҳада таълим беришнинг долзарб муаммолари ва истикболи юзасидан маъруза ўқиди. Маърузада кўтарилган муаммолар ўз долзарблиги ва муҳимлиги билан катта аҳамият касб этди.

Тошкент маданият коллежи доценти А.Тўлаганов ўз маърузасида бугунги ёшларда билим ва тафаккур етарли эканлигини, аммо уларда педагогик тажрибанинг етишмаслиги соҳада юзага келиши мумкин бўлган камчиликларни олдиндан кўра билмаслик, кейинчалик янада кўплаб муаммоларни келтириб чиқариши мумкинлигига алоҳида тўхталиб ўтди.

“Ўзбекконцерт” давлат муассасаси маъсул ходими Матлуба Темур кизи эстрада қўшиқчилиги санъатида ҳаваскор қўшиқчиларнинг кўпайиб бораётгани, шу муносабат билан саёз қўшиқларнинг дунёга келаётгани хусусида қуюниб гапирди. Эстрада санъатининг бу йўналиши келажакда ривожланиши учун Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 апрелдаги ПҚ-3652-сонли “Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари



тўғрисида”ги қарорига таянган ҳолда Ёзувчилар уюшмаси билан ҳамкорлик қилиш, қўшиқлар яратиш ва диплом спектаклларини сахналаштиришда бадий жихатдан етук асарлардан фойдаланиш зарурлиги хусусида ҳам таклифлар билдирилди.

Семинарда институт профессори, устозимиз Арсен Исмоилов очик баҳс ва мунозара тарзида ўтказилган мазкур семинар хусусидаги илиқ фикрларини билдириб, педагогик фаолиятнинг нақадар маъсулиятли ва машаққатли эканлигини алоҳида таъкидлади. Бу соҳани танлаган инсон нақадар кенг қалб ва юксак саҳоват соҳиби бўлиши лозимлиги ҳақида гапириб ўтди.

Республика илмий-амалий семинари кофе-брейк ҳамда институт ва коллеж талабалари иштирокида ташкил этилган сахна асарлари намоиши билан ўз якунини топди.

Фаррух ЭГАМБЕРДИЕВ,
“Эстрада ва оммавий томошалар санъати”
кафедраси мудири в.б, доцент

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувда шундай деган эди: “Адабиёт ва санъатнинг нақадар қудратли кучга эга экани ҳақида сиздек зукко инсонлар ҳузурда сўз юритишга, очиғини айтсам, мен бироз тортинаман”. Дарҳақиқат, Президентимиз таъкидлаганидек адабиёт сўз санъати бўлганлиги учун ҳар қандай қуролдан кўра ҳам қудратли куч ҳисобланади. Негаки у инсонни тарбиялайди, унинг келажакни белгилайди, уни ҳақиқий инсон бўлишига кўмаклашади, дунёқарабини кенгайтиради, атрофдагиларга бўлган бағрикенгликни мустаҳкамлайди. Шунинг учун ҳам ўтмишдаги ва замонавий миллий ва қардош адиблар кадрланади ва уларнинг ижодий мероси ўрганилади ҳамда дўстона алоқалар янада мустаҳкамланади.

2018 йил 16 мартда Президентимизнинг “Буюк қозоқ шоири ва мутаффакири Абай Қўнобоев ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш тўғрисида”ги Қарори эълон қилинди. (Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси. 2018 йил 16 март №12) Жумладан унда шундай дейилади: “Буюк маърифатпарвар шоир ва мутафаккир эзгулик ва дўстлик қуйчиси Абай Қўнобоевнинг шарафли номи ва бой ижодий мероси нафақат қозоқ халқи, айни пайтда, бутун туркий халқлар, жумладан ўзбек халқининг ҳам қалбида безавол яшаб келмоқда”.

Бу буюк алломанинг ижодини ўрганиш ўзбек ва қозоқ халқларининг ўзаро дўстлик ва ҳамкорлик алоқаларини янги босқичга кўтаради. Халқларимиз ўртасидаги қондошлик муносабатини янада мустаҳкамлайди. Буюк Алишер Навоийнинг анъаналарини давом эттирган ҳолда шоир ўз асарларида умминсоний қадриятлар ва меҳр-оқибат туйғуларини қуйлади. Бадий жихатдан етук асарлари умумтуркий адабиёт равнақиға улкан ҳисса қўшди. Шу маънода қозоқ халқи адиби Абай Қўнобоевнинг ижодини ўрганиш бизнинг энг муҳим баналмилалик бурчимиздан бири ҳисобланади. Абай қозоқ классик адабиётининг буюк вакилларидан бири, оқин, буюк шоир ҳисобланади. У мадрасада ўқиб юрган чоғларидаёқ форс, араб, турк тилларини ўрганди ва бу тиллардаги буюк мерослар билан танишди. Қадимги юнон шоири Гомер ўзининг “Илиада” ва “Одиссея”дек буюк асарларини ёзишдан аввал илҳом маъбудларидан куч-қувват ва ақл-заковат сўрган

эди. Шу шоир сингари адиб Абай ҳам шеърларининг бирида етти нафар буюк сўз усталарининг табаррук номларини ҳурмат билан тилга олар экан, уларнинг руҳи покларидан ўзининг ҳаёт йўли ва ижод қўли, сўзи, қалами учун мадад, файзу футувват сўраб шундай ёзади:

**Фузулий, Шамсий, Сайқалий,
Навоий, Саъдий, Фирдавсий,
Хўжа Ҳофиз – сиз ҳаммангиз,
Мадад беринг, қилманг осий!**

Шоирнинг ушбу сўзлари Навоийнинг “Йўлдаса бу йўлда Низомий йўлум, қўлдаса Хусрав била Жомий қўлум”, “Қарам айлаб икки қўлум қўлдасангиз, сўз иқлими сори мени йўлдасангиз” сингари ажойиб шоҳбайтларини ёдга солади. Ҳар иккала ижодкор – бу ҳолатини Навоийнинг “Сўз иқлимига”, “ўзни би-йиклар ипиға боғлаш” сингари сўзлари билан англаб олиш мумкин.

Буюк шоирнинг ижодий меросининг анчагина қисми халқни, айниқса ёшларни эзгуликка, бағрикенгликка, тўғрилиқка, моддий-маънавий ободликка, илм-маърифатга, маданиятга, умуман ўзлиқни англашга қорлайди. Ижодкорнинг бу даъватлари “Нақмея сўзлар” мажмуасини ташкил этади. Асарга юкланган ғоялар шоир яшаган давр учунгина эмас, балки ҳозирги замон учун ҳам долзарб эканлигини таъкидлаш лозим. Булар Абай кўнглининг тубидан чиққан сўзлардир. Рамзий образлар орқали Абай ҳар ким ўз сўзидан огоҳ бўлиши лозимлигини таъкидлайди, сўзлардаги нуқсон у маломатлардан сақланишга қақиради, умуман сўзни бекорга совурмаслик, уни ўз ўрнида

ҚОЗОҚ ХАЛҚ ОҚИНИ

ишлатиш, унга нисбатан доим эътиборда бўлишни уқтиради. Оқин ўз сўзи билан ўз юртдошларига яхшилар фазилати, хайри баракаси, ёмонлар қасофати ва офатини англаштиришга интилиши ҳозирги кунларимизда ҳам ўз долзарблигини йўқотган эмас.


Қозоқ адабий тили ва адабиётининг асосчиси сифатида Абай ўз халқига мурожаат қилади:

**Сўзим — ўза, тингловчи сен
ҳам тўзал,
Бехуда ғандан суҳбат қурма-
гайман.**

Бу билан шоир келажак авлод ҳам унинг сўзларини ўқиб-ўрганишига умид қилади. Ўз фикрини шоирона тарзда “Авлодларимга сўз қолсин”, “Қабул кўрса сўзимни, Ким таниса шу олсин”, дея бадий ифода қилади.

“Нақлия сўзлар” асари ўзбек китобхонларига “Насихатлар” номи билан машҳур. Буни биринчи Президент И.Каримовнинг “Алишер Навоий бобомиз бўладими, Рудакий, Абай, Маҳтумқули ёки Тўқтагул каби улуг зотлар бўладими – уларнинг барчаси ўз ижоди билан нафақат икки дарё орлиғидаги халқларни, балки бутун башарият фарзандларини доимо меҳр-муҳаббатга, дўст-биродар бўлиб яшашга даъват этгани бежиз эмас”, сингари сўзларидан англаб олишимиз мумкин.

Адиб сўз инсон ҳаётида ғайрат, юрак, ақл, илмнинг ўрни ва одамгарчиликнинг фазилатини баён қилишини таъкидлайди. Асарда Абай айнан нутқ, сўз билан боғлиқ интоқ санъатининг гўзал намунасини яратади. Шу каби тўрт рамзий образнинг ўзаро мунозараси орқали инсон ҳаётида бу тўрт унсурнинг аҳамияти ҳақида гапирилган. Асарда, шунингдек, ибрат олиш ва ибрат кўрсатиш, ибрат назари юзасидан сабоқлар баён этила-



ди. Бошқа сўз рамзларида шоир инсон ҳаётида муҳим ўрин тутган инсоф ва адолат, фазилат, муомала маданияти, дин, эътиқод, давлатни идора қилиш усуллари ҳақида фикр-мулоҳазалар билдирилади.

Абай “Ўлан” шеърида пайғамбар, эр доноси, валийуллоҳ, кекса бийлар, беақл оқинлар, нодонлар, ботирлар, ошиқлар, маъшуқалар сингари салбий ва ижобий образларни келтиради ва уларнинг характерини яратишда “Бало–офат тилга, сўзга боғлиқ” деган сўзлари Навоийнинг “Тилга эътиборсиз – элга эътиборсиз” ҳикматиға ўхшаб кетади. Шоир халқига “Теран ўй, теран илм йўлинг очсин!” дея хитоб қилади. Унинг бу хитоби ҳозиргача дунё халқларини огоҳлик ва ҳамжиҳатликка чақирмоқда.

Сўз билан ишлашда Навоийнинг анъаналари намоён бўлади. Шоирнинг сўзларига асосланиб Абайни Навоий анъаналарини давом эттирган шоғирди деб айтиш мумкин.

Хамдам ИСМОИЛОВ,
ЎЗДСМИ доценти, ф.ф.н.

«СЎЗ» ҲАҚИДА СЎЗ

Юртбошимиз томонидан 2018 йил “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб қувватлаш йили” деб эълон қилингани бежизга эмас. Институтимизда ҳам инновацион дарсларни ташкил қилишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Кунни кеча институтимиз Ахборот ресурс марказида “Тиллар ва адабиёт” кафедраси доценти Х.Исмоилов томонидан сўз ва бадий сўз мавзусида ўтказилган семинар-машғулоти инновацион ёндашишга мисол бўла олди.

Шоир Эркин Воҳидов айтганидек, “Дунёнинг энг ажиб, энг сирли ва сеҳрли саёҳатларидан бири сўз оламига саёҳатдир. Негаки, сўз яратилишидан мўъжиза. Аввал сўз бўлган, дейилади, муқаддас китобларда... сўзнинг илдизига етган киши дунёнинг тагига етганидек баҳра топади. Инсоният тарихи сўзлар қисматида яшириниб ётар экан”. Доцент Х.Исмоилов “Сўз ва бадий сўз” ҳақида батафсил тушунча берди.

Семинар-машғулотда иштирок этган “Саҳна нутқи” кафедраси катта ўқитувчиси, таниқли суҳандон Б.Мағдиев ўзларининг сўз борасидаги қарашлари ва фикрларини талабалар билан баҳам кўрди. Ҳар қайси даврда, қайси миллат, қайси ирқ бўлишидан қатъи назар, инсоният сўз воситаси орқали суҳбатлашади ва мулоқотга киришади. Биргина сўзнинг қудрати натижасида бутун олам яралганлиги барчамизга маълум. (Яратган

“ярал” арабчада “қун” деган сўзлари натижасида бутун коинот яралган.) Бундан келиб чиқадики, сўз узок тарихга эга бўлган бир хилқатдир.

Семинар-машғулот ўз олдига қўйган мақсадга эришди ва талабаларида сўзга нисбатан муҳаббат уйғота олди.

Шу нарсга маълумки, инсон қалбига юрмай етиладиган манзил бу кўнгил. Кўнгилни эса шубҳасиз сўз сеҳри орқали забт этади. Шу маънода, Ўзбекистон халқ шоири Эркин Воҳидовнинг “Нутқ ҳақида” деб номланган шеърдан парча келтириш мумкин:

*Мазмун деган мўлжалга,
Сўз – отилган ўқ бўлсин.*

*Нишонга тегмай қолган,
Битта ўқ ҳам йўқ бўлсин.*

С. ТОШПЎЛАНОВА
“Ижтимоий маданий фаолият”
таълим йўналиши 2-босқич
талабаси

СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ: НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ (ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ)

25 апреля 2018 года в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана состоялась научно-практическая конференция «Стратегия действий: наука и образование (проблемы и их решение).»

Проведение конференции было инициировано руководством института совместно с отделом Науки. Тема научной конференции обусловлена повышенным интересом молодежи, занимающейся наукой, к Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям в Республике Узбекистан рассчитанные на 2017–2021 годы.

Основными направлениями в представленных докладах прозвучали темы, затрагивающие важные и актуальные вопросы развития нашей Республики в рамках разработанной Стратегии. Молодежь занимающаяся научными изысканиями и педагоги, принявшие участие на конференции, доказали ту истину, что заниматься вопросами научных открытий невозможно изолированно от тех процессов, которые активно происходят среди нас, в нашей стране.

Пленарное заседание научной конференции и доклады, зачитанные на нем, были отмечены большой заинтересованностью и сопричастностью докладчиков к проводимым реформам, продемонстрирована высокая политико-правовая активность.

Так как президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мерзиеевым в Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах (далее

– Государственная программа) согласно приложению №8, было поручено «...проводить открытые мероприятия в рамках Государственной программы, широкого и активного участия в них молодежи, творческих и научных учреждений», то можно с уверенностью сказать, что Государственный институт искусств и культуры Узбекистана, не стоит в стороне, а занимает активную позицию в реализации данного постановления. Нужно отметить высокое желание молодежи быть участниками конференции, желание высказать свои вопросы и предложения по их решению. Это высокая оценка проводимым реформам в стране.

На пленарном заседании были заслушаны доклады: Г. Умаралиевой, старшего педагога кафедры «Общественно-гуманитарных наук», на тему «Харакатлар стратегияси — миллий ғоя асоси», доклад И. Меликузиева педагога, заведующего кафедрой «Звукорежиссура и операторское мастерство», на тему «Ўзбек кинематографиясида тасвирий ечим муаммолари», доклад Ш. Сариебаевой, докторанта 1 курса, на тему «Использование образовательных форм обучения в высших учебных заведениях творческого характера» и доклад на английском языке «Semiotics of sound: Toward a cinema theatre and television», выполненный докторантом 1 курса Марковым С. Каждая тема была раскрыта выступающими, в ракурсе выполняемой Государственной программы.

Развернута широкая дискуссия и в секционных выступлениях среди докладчиков и гостей конференции. В ходе обсуждений были обозначены те живые темы, которые так волнуют творческую молодежь и деятелей искусства и культуры, а так же были предложены различные варианты их решений, и подходов к реализации предложений. Все доклады были настолько интересны, что обсуждение вышло за рамки аудиторий. Участниками, гостями и руководством института, решено дать дальнейшее развитие темам, дабы рациональные предложения не остались только в стенах института.

Наталья ЮСУПОВА,
докторант II курса



О‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda “O‘zbekkonsert” davlat muassasasi tomonidan joriy yilning 25-yanvar kuni Respublikada ilk marotaba “Zuvola” asl qo‘shiqdar milliy tanlovi e‘lon qilingan edi.

Mazkur tanlovga shoirlar, bastakorlar hamda professional xonandalar tomonidan yuborilgan qo‘shiqlarning matni, musiqasi hamda xonandalarning ijro mahoratlariga katta e‘tibor qaratildi. Taqdirlash marosimini Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Ozodbek Nazarbekov ochib berdi.

Tanlov Toshkent shahri va viloyatlarida ijod qilib kelayotgan juda ko‘plab xonandalar, ijodkorlar turli janr va yo‘nalishida qo‘shiqlar yo‘llashdi.

“Zuvola” asl qo‘shiqlar milliy tanlovining datlabki to‘rtta g‘oliblari aniqlandi va ularning har biriga 20 million so‘m miqdoridagi pul mukofotlari topshirildi. G‘oliblar orasida institutimizning “Xalq ijodiyoti” fakulteti 2-bosqich talabalari Aziza Mamadaliyeva

va Yulduz Abdurahmonova “Mayda-mayda” taronasi uchun, “Teatr san’ati” fakulteti 3-bosqich talabasi Mahliyo Omon “Diyor madhi” taronasi uchun 20 million so‘mlik mukofotga munosib deb topildi.

Zuvolasi pishiq deb topilgan Aziza Mamadaliyeva va Yulduz Abdurahmonovalarga “Mayda-mayda” qo‘shig‘i uchun diplom, pul mukofotidan tashqari televidenie va radioda o‘z ijod namunalarini taqdim etishi uchun bir yillik bepul litsenziya taqdim etildi.

G‘oliblarimizga san’atning asl milliy ko‘rinishini namoyish etib, yanada yuksak pog‘onalarini zabt etishdan charchamasliklarini tilab, ijodiy zafarlar hamroh bo‘lsin deymiz.

Yana shuni eslatib o‘tish joizki, tanlov joriy yilning 20-mayiga qadar davom etadi. G‘olib talabalarimiz safi yanada ortishini kutib qolamiz!

Azizabegim MAVLONOVA,
“Teatrshunoslik” ta‘lim yo‘nalishi
2-bosqich talabasi



МАЪНАВИЙ КАМОЛОТ ЙЎЛИДА

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институтининг Фарғона минтақавий филиали жамоаси савобли ишларни давом эттиришмоқда. 2018 йил 15 февраль кунин филиал директори Шамсиддин Усмонов режиссёрлигида тайёрланган, диний экстремизм ва терроризмнинг олдини олишга қаратилган “Хазон бўлган умр” спектакли Қўқон шаҳар мусиқали драма театрида намоиш этилган эди.

Ўтган шу муддат ичида спектакль Қўқон шаҳар 12-меҳрибонлик уйи тарбияланувчилари, республикада ягона бўлган Қўқон шаҳар махсус енгил саноат қасб-хунар коллежи ҳамда Қўқон шаҳридаги мактаб ва коллеж ўқувчиларига хайрия тариқасида намоиш этиб келинмоқда. Спектаклдан ўқувчилар Ватанга муҳаббат, ота-онага ҳурмат, дўстга садоқат туйғуларини ўзларида ҳис этишлари шубҳасиз.

Филиал жамоаси ҳозирги кунда миллий озодлик руҳидаги “Бек” спектакли устида кизғин ижодий ишлар олиб бормоқда. Спектакль ёзувчи Мансурхўжа Ходжаев қаламига мансуб “Шермуҳаммадбек” асари асосида саҳналаштирилмоқда. Унда ўзлигини тиклашга ҳаракат қилган бир неча улғу боболаримиз: Шермуҳаммадбек, Мадаминбек, Катта ва Кичик Эргаш ва шу каби ватанпарвар инсонлар фаолияти ҳақида ҳикоя қилади.

Дилмурод МАДОЛИМОВ,
ЎЗДСМИ Фарғона минтақавий филиали
Маънавият-маърифат ва иқтидорли ёшлар билан ишлаш бўлими бошлиғи

Respublikamizning barcha oliy taʼlim muassasalari tarkibida Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida, taʼlim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida olib borilayotgan islohotlarning talablariga muvofiq, uzluksiz taʼlim tizimida taʼlim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va oʻquv jarayoni samaradorligini xolisona baholanishini nazorat qilish maqsadida, Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

“SON” EMAS “SIFAT” DAVR TALABI

Institut tarkibidagi “Talim sifatini nazorat qilish boʻlimi”ning Nizomi va ish rejasi rektorning 2017-yil 16-dekabrdagi 172-MXI buyrugʻi bilan tasdiqlandi. Boʻlimning asosiy vazifasi – taʼlim-tarbiya jarayoni, professor-oʻqituvchilar tarkibi, taʼlim tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifati hamda mulkchilik shakli va idoraviy boʻysunishidan qatʼi nazar, taʼlim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan oʻtkazish, taʼlim-tarbiya sifatini nazorat qilish boʻyicha davlat siyosatini amalga oshirishdan iboratdir.

Davlat inspeksiyasi hamda institut rektorining buyruqlari asosida institutimiz tarkibida Taʼlim sifatini nazorat qilish boʻlimi oʻz faoliyatini boshladi. Boʻlimning asosiy vazifalari yuqoridagi qonun talablari doirasidan chiqmagan holda institut rektori rahbarligida taʼlim muassasasida olib

borilayotgan taʼlim jarayonini nazorat qilishdan iborat.

Boʻlim faoliyatini yoʻlga qoʻyishda, institut veb saytida “Taʼlim sifati” rukni, boʻlim faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumot va boʻlimning vertual qabulxonasi tashkil etildi. Bunda talabalar hamda professor-oʻqituvchilar istalgan vaqtda taʼlim sifatini oshirish boʻyicha oʻzlarining fikr mulohazalarini bildirishlari, taʼlim jarayonida yoʻl qoʻyilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha takliflarini bildirishlari mumkin.

Bundan tashqari davlat inspeksiyasi hamda rektor tomonidan boʻlimga taʼlim sifatini oshirish boʻyicha katta masʼuliyat yuklangan yaʼni institutda faoliyat olib borayotgan pedagog-oʻqituvchilar tomonidan berilayotgan taʼlim sifatini aniqlash va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish

Tanqidiy tahlil qatʼiy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak.

SH.Mirziyoyev

boʻyicha Institut kengashiga takliflar berish, iqtidorli talabalarni ragʻbatlantirish, ularga magistratura, doktoranturalarda oʻqishlarini davom ettirishlari uchun takliflar berishdir.

Maʼlumki institutimizdagi taʼlim yoʻnalishlarining deyarli barchasi ijodiy jarayon bilan bogʻliq. Oʻrganishlarimiz davomida shu narsa maʼlum boʻldiki, bugungacha taʼlim jarayoniga ishlab chiqarish korxonalari yaʼni sanʼat va madaniyat muassasalari, teatrlar, madaniyat uylari, istirohat bogʻlari, madaniyat va aholi dam olish maskanlari faqatgina amaliyot bazasi sifatida, jalb qilib kelingan. Taʼlim sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qoʻyilayotgan yangi talab kadrlar isteʼmolchi sifatida ishlab chiqarish korxonalari esa bevosita taʼlim jarayonida ishtirok etishi kerak. Oldimizdagi eng katta vazifa mana shu mexanizmni yoʻlga qoʻyish, uning talablarini ishlab chiqish, taʼlim jarayonida qoʻllash va ijrosini nazoratga olish.

Prezidentimizning Taʼlim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda uning oliy taʼlim muassasalari tarkibidagi boʻlimlari oldiga qoʻyayotgan talablari, butun dunyo talablariga javob bera oladigan oʻz kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirib chiqarish.

Buning uchun har bir pedagog oʻz ustida tinimsiz ishlashi, izlanishi, yangiliklarga intilishi va eng muhimi taʼlim sifatini oshirishga eʼtibor qaratishi lozim.

“Tanqid qilish kerak. Tanqidning tagi natija. Tanqidning ham maʼnosi bor, maʼrifati, maʼnaviyati bor. Tanqid foydali boʻlishi kerak. Ura-ura boʻlishi kerak emas” – deydi yurtboshimiz.

Ushbu fikrdan kelib chiqib aytib oʻtishim mumkin 2017-2018 oʻquv yili birinchi semestri yakunlari boʻyicha “Talim sifatini nazorat qilish boʻlimi” tomonidan fakultetlarda yuritilayotgan kurs jurnallarining xolati oʻrganildi. Tekshirish davomida juda koʻp kamchiliklarimiz aniqlandi. Ayrim pedagoglarimiz xaligacha jurnalni toʻgʻri yuritolmaydi. Reyting ballarini xisoblashda oddiy arifmetik elementlarni bajara olmasliklari aniqlandi. Balki bu arzimagan xatodir, ammo mana shu arzimagan xato ertaga katta muammolarni olib kelmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Olim DADAMIRZAYEV,
Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti tarkibidagi “Taʼlim sifatini nozorat qilish boʻlimi” boshligʻi

“ACHCHIQ DANAK”

“Odob-axloq qoidalari” yuzasidan institutda oʻrnatilgan tartibga amal qilmayotgan talaba-yoshlarning nomlari institutning maʼnaviy-maʼrifiy, ilmiy, axborot gazetasi “Ijodiy parvoz”ning “Achchiq danak” ruknida berib borilishi barchamizga maʼlum. Ushbu sahifada nomlari keltirilgan talabalar bilan tushintirish ishlari olib borilishi hamda dekanatlar tomonidan tushuntirish xatlari olinishi natijasida quyidagi talabalarda ijobiy oʻzgarishlar, yaʼni darslarga oʻz vaqtida, formada qatnashib kelmoqdalar.

Jumladan:

Abzalov Samandar, Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti Sanʼatshunoslik (Teatrshunoslik) yoʻnalishi 4-bosqich talabasi;

Xolmatova Asalxon, Xalq ijodiyoti fakulteti “Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik” taʼlim yoʻnalishi 3-bosqich talabasi;

Azimov Mirxodi, Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti Kasb taʼlimi: “Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish va boshqarish” yoʻnalishi 1-bosqich talabasi;

Bayanov Hamroz Baxtiyor oʻgʻli, Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti Kasb taʼlimi: “Madaniyat va sanʼat muassasalarini tashkil etish va boshqarish” yoʻnalishi 1-bosqich talabasi;

Matrasulov Murodbek, Xalq ijodiyoti (Xalq ashula va raqs ansambiliga rahbarlik) taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabasi;

Roʻzimurodov Ilyosjon Xalq ijodiyoti fakulteti “Cholgʻu jamoalariga rahbarlik” taʼlim yoʻnalishi 3-bosqich talabasi;

Sagdiyev Sardor, Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti “Televideniye va radio rejissyorligi” taʼlim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi;

Nishonboyev Kozim Teatr sanʼati fakulteti “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi” taʼlim yoʻnalishi 4-bosqich talabasi

Botirov Dadaboy, Xalq ijodiyoti fakulteti “Xalq ashula va raqs ansambiliga rahbarlik” taʼlim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi

Gazetaning 2017-yil dekabr 56-sonida chiqqan talabalarga TTJga kechikib kelganliklari uchun dekanatlari tomonidan qayta takrorlanmaslik uchun tushuntirish xatlari olindi va hozirda ushbu talabalar TTJga kechikmasdan kelmoqdalar.

Chaqqonov Oybek, Xalq ijodiyoti fakulteti “Xalq ashula va raqs ansambliga rahbarlik” taʼlim yoʻnalishi 4-bosqich talabasi;

Iboddullayev Habibulla, Xalq ijodiyoti fakulteti “Ijtimoiy madaniy faoliyat” taʼlim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi.

Gazetaning 2018-yil fevral 58-sonida nomlari keltirilgan 2 nafar talabamiz fanlardan qarzdorligi sababli keyingi yili oʻqishlarini davom ettiradilar.

Ular:

Kino, televideniye va radio sanʼati fakulteti “Televideniye va radio rejissyorligi” yoʻnalishi 3-bosqich talabalari: **Iskandarov Sardor**, **Qahhorov Furqat**.

Barcha talaba-yoshlarni institutda oʻrnatilgan “Odob-axloq qoidalari”ga amal qilishlarini, ularga yaratilgan imkoniyatlardan toʻliq foydalanishlarini chin dildan istab qolamiz.

Maʼnaviyat va maʼrifat boʻlimi

MITTI HIKOYALAR

— Sogʻindingmi?
— Ha.
— Yaxshi koʻrasanmi?
— Judayam.
— Oʻziga aytganmisan?
— ...
— Xafa qilganmisan?
— Koʻp marta.
— Nima uchun?
— Meni tushunmaydi, deb oʻylardim?
— Kechirim soʻraysanmi?
— ...
— Hozir qayerda u?
— Uyda, jonimning sogʻligini soʻrab duo qilyapti.
— Aytadigan gaping yoʻqmi?
— Bor... Onajon, sizni yaxshi koʻraman.

* * *

Uydan shoshib chiqib mashinaga oʻtirdi. Oʻrtogʻi bilan soʻrashdi-yu yana tez mashinadan tushdi.
— Qayoqqa?

— Hozir, bir daqiqa.
— Shoshyapmiz, axir.
— Tez chiqaman.
— Hamma narsani tayyorladim, demab-miding?
— Bir narsani unutibman.
— Tagʻin nima?
Yigit jilmayib javob berdi-da uyga kirib ketdi.
— Volidamning duolari!

* * *

— Sochlaringiz oqarib ketibdi!
— Oʻzimga yarashib turibdi...
— Ularni men oqartirdim-a?
— Yoʻq bolam, hayot menga koʻmirdek sochlar oʻrniga kumush tolalarni berdi.
Menga (balki oʻziga ham) taskin berish uchun aytilgan bu gaplardan yuragim mayda zarralarga boʻlinib ketdi.

Majnuna CHOʻLIYEVA,
“Sahna va ekran sanʼati dramaturgiyasi” taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabasi

Ruqʼa nima?

Oʻtmishda olim, shoir va oʻz davrining bilimdonlari shaxsiy munosabat bilan yozilgan xatlarni avaylab saqlashni odat qilganlar. Davlat idoralarida esa maxsus dabirlar(kotiblar) ish olib borgan. Boshqa mamlakat podsholariga, hokim yoki, umuman, nufuzli shaxslarga mazkur dabirlar xat yozganlar. Bunday xatlar, odatda, ruqʼa yoki insho deb atalgan.

Ruqʼa yoki inshoning maʼnosi nima? Ruqʼa arabcha soʻz boʻlib, “Gʻiyos ul-lugʻot” kitobining muallifi u haqda shunday yozadi: “Ruqʼa — libos yoki qogʻoz parchasi, ruqoʻ esa ruqʼaning koʻpligi boʻlib, narsalarning parchasini yoki bir parcha qisqa xatni

bildiradi. Yana u Ibn Muqlaʼ ijod qilgan olti xatdan birining nomidir”. Yana oʻsha kitobning guvohlik berishicha, ruqʼani anglatadigan muraqqaʼ soʻzi yamalgan, yirtilgan hirqa toʻnni hamda rasmlar va naqshlar bilan bezatilgan kitobni ham bildiradi. Insho esa oʻzidan biror narsani ijod qilish, toʻqish va yozishni bildiradi.

Demak, ruqʼa bir parcha xat, insho esa biror narsaga bagʻishlangan maktubdir.

Biror kimsaning qoʻlida toʻplangan va yigʻilgan ruqʼalar, odatda, ruqoʻ, ruqʼaot yoki muraqqaʼ deb atalsa, insholar esa munshaot deb atalgan. Kitob shaklida toʻplangan maktublar xuddi ana shu nomlar bilan atalgan. Bu soʻz qadimgi manbalar va Alisher Navoiyning yozishmalarida uchrab turadi.

Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti Oʻzbekiston xalq artisti, taniqli rejissyor Shuhrat ABBOSOVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila aʼzolariga va yaqinlariga chuqur taʼziya izhor etadi.

Muassis:
Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Nafisa RAIMQULOVA

Tahrir hayʼati:
Goʻzal XOLIQULOVA
Hamdam ISMOILOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Masʼul kotib:
Xurshida FAYZULLAYEVA
Muxbirlar klubi sardorlari:
Muharram BOZOROVA
Shavkat DOʻSTMUHAMMAD

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulugʻbek tumani, Yalangʻoch mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsmi.uz; dsmi_info@olam.uz

Gazeta har oyning oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: Oʻrta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mashʼal mahallasi, Markaz –1.

Sahifalovchi:
Dilmurod DOʻSTBEKOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda roʻyxatga olingan.